

NAJOT YO'LI YOXUD MILLATLAR QANDAY TARAQQIY ETARLAR?

Fayziyeva Malika Aktam qizi

Samarqand davlat chet tillari instituti talabasi

Annotatsiya: *Maqolada millat taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan tub sabablar, ya'ni ilmi axloqning asosi bo'lgan tarbiya haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Jadid adabiyoti namoyandalari, Tarbiya, Xulq, Ilm.*

Vatanining mustabidlar zulmidan ozod bo'lishini, millati farzandlarini sharafga to'lganlar qatorida ko'rishni orzulagan xalqimizning qalbi uyg'oq farzandlari, xalq ma'naviyatini boyitish yo'lida olib borilgan kurashlar, milliy matbuot, adabiyot va teatrning odamlar tafakkurini oshirishdagi ahamiyati haqida asarlarida kuyunib yozgan, bu borada fidoyilik ko'rsatgan, alaloqibat qatag'onga uchraganlar haqida so'z borarkan, Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Usmon Nosir, Is'hoqxon Ibrat siymolari ko'z oldimizda gavdalanadi. Ular o'z asarlarida ko'targan muammolar hamon bizning qarshimizda bo'y ko'rsatib turibdi

Tarbiya – “Pedagogika”, ya'ni bola tarbiyasining fani. Bolaning salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmoq, tanini pok tutmoq, yaxshi xulqlarni o'rgatmoq, yomon xulqlardan saqlab o'stirmoq darkor. Tarbiya qilguvchilar tabib kabidurki, tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilgani kabi tarbiyani bolaning vujudidagi

jahl maraziga “yaxshi xulq” degan davoni ichidan, “poklik” degan davoni ustidan berib, katta qilishi lozim. Hukamolardan biri ta'kidlaganidek: “Har bir millatning saodati, davlatlarning tinchligi va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog'liqdur”. Tarbiyaning zamoni. Ma'lumki tarbiyani tug'ulgan kundan boshlamoq, vujudimizni quvvatlantirmoq, fikrimizni nurlantirmoq, axloqimizni go'zal qilmoq, zehnimizni ravshanlantirmog'imiz lozim ekan. “Tarbiyani kimlar qilur, qayda qilinur?”- degan savol keladi. Bu savolga, “Birinchii uy tarbiyasi. Bu ona vazifasidir. Ikkinchi, maktab va madrasa tarbiyasi. Bu ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidir”,- deb javob beramiz. Ammo bu ota-onalar avval o'zlarini o'qitishi, tarbiya qilishi lozim. Muallimlarga kelsak, maqsadi pul, maslagi shuhrat, yuqori maktablarda o'qimagan, “usuli ta'lim” ko'rmagan muallimlarmi? Aksincha, avval o'zlari “dorilmuallimin”larda o'qimoqlari, so'ngra dars bermoqlari lozimdur”. Yuqoridagi bu so'zlar insonni hayrat daryosiga g'arq qilur. Bo'lmasa hukumat-chi? Hukumat hammaning otasidir. O'z fuqarosining bolalarini tarbiya qilmog'i lozim. Lekin o'zimiz ish bilmagan yalqov, uyda onamiz tarbiyasi, otadan pul tarbiyasi, muallimdan axloq tarbiyasi, mudarrisdan funun tarbiyasi ko'rmaganimizdan, hukumat maktablaridan ham o'z hissalarimizni ololmaymiz. Mana bu so'z bizlarni tarbiyadan mahrum, huquqning nima ekanini bilmaganligimizni bildiradi.

Badan tarbiyasi haqida: Sog' badanga ega bo'lmagan insonlar ammallarida, ishlarida, ibodatlarida kamchilik qilurlar.

Fikr tarbiyasi haqida: Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko'p zamonlardan beri taqdir qilinib kelgan, muallimlarning diqqatlariga suyangan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadur. Fikr insonning sharofatlik, g'ayratli bo'lishiga sabab bo'ladi. Bu tarbiya muallimlarning yordamiga so'ng darajada muhtojdurki, fikrning quvvati, ziynati, kengligi muallimning tarbiyasiga bog'liqdir.

Axloq tarbiyasi: insonlarga eng muhim, ziyoda sharaf, baland daraja berguvchi axloq tarbiyasidir. Inson ikki narsadan murakkabdur. Biri jasad, ikkinchisi nafsdur.

Jasad ko'z bilan bor narsalarni ko'rur. Ammo nafs idrok bilan yaxshini yomondan, oqni qoradan ajratadi. Jasadning ham, nafsning ham biror surati borki, yo yaxshi va yo yomon bo'ladi. Jasadning surati hammaga ma'lum bir narsadirki, har vaqt ko'zga ko'rinib turadi. Ammo nafsning surati ko'zga ko'rinmaydigan, aql bilan

o'lchanadigan bir narsadirki, buni xulq deb ataymiz. Axloq. Insonlarni yaxshilikka chaqirguvchi, yomonlikdan qaytarguvchi bir ilmdir. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini,

yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar bilan bayon qiladigan kitobni axloq derlar.

Yaxshi xulqlar: bir qismi o'z nafsimizga, bir qismini birbirimizga qarshi ishlatmoq uchun kerakli bo'lgan yaxshi xulqlar: fatonat; diyonat; islomiyat; nazofat; g'ayrat; riyozat; qanoat; shijoat; ilm; sabr; hilm; intizom, miqyosi nafs; vijdon; vatanni sevmog; haqqoniyat; nazari ibrat; iffat; hayo; idrok va zako; hifzi lison; iqtisod; viqor; xavf va rajo; itoat; haqshunoslik; xayrixohlik; munislik; sadoqat; muhabbat va avfdur.

Fatonat – aql egasi bo'lmoq demakdir. Aql insonlarning piri komili, murshidi yagonasidir. Diyonat – Alloh huzuriga yaqin qiladigan muqaddas e'tiqoddurki, olamda bundan suyukli narsa yo'qdur. Islomiyat – butun insoniyatdir. Insoniyat esa yaxshi xulqdan iboratdir.

Nazofat – deb a'zolarimizni, kiyimlarimizni, asboblarimizni pok va toza tutmog'imiz aytiladi. Poklik zehn va idrokni keng va o'tkir qiladi. Xalq orasida e'tibor va shuhratga sabab bo'ladi. Poklik ila har xil kasallardanqutulib, jonimizning qadrini bilgan bo'lamiz. Pok bo'lmoq salomatimiz, saodatimiz uchun eng kerakli narsadir. Sa'y va g'ayrat deb ustiga yuklangan ibodat va xizmatlarni harakat bilan ado qilmoqqa aytiladi. Yalqov kishilar har narsadan mahrum, doim boshqalarning yordamiga muhtoj bo'lib xorlikda qolurlar. Riyozat – deb savob ishlarni qilib, gunoh ishlardan saqlanmoqlikka aytiladi. Riyozat odobning koni, ruhning darmonidur. Shijoat – deb botir va yurakli bo'lmoqqa aytilur. Shijoatli kishi hech narsadan qo'rqmaydigan botir va yurakli bo'lur. Qanoat – hasad, tama, hirs, xorlik kabi illatlarning davosi, nafsimizning g'inovidur. Qanoat bir xazinadurki, bu xazinaga ega bo'lgan kishilar umrlarini shavq va rohatda kechirurlar. Sabr – deb boshimizga kelgan balo va qazolarga chidamli bo'lmoq nazarda tutiladi. Sabr shunday bir kuchli bir narsadurki, shahvatni iffatga, g'azabni shijoatga, shiddatni hilmga, kattalikni tavozuga, yomonlikni yaxshilikka aylantirmoqqa quvvati yetar. Hilm – deb bo'lar bo'lmasa ishga

achchiqlanmaydigan, arslon yurakli, yumshoq tabiatli bo'lmoqqa aytiladi. Nafsning rohati, qalbning matonati, fikrning salomati, vijdonning halovati halim tabiat bo'lmoq ila hosil bo'ladi. Intizom – deb qiladigan ibodatlarimizni, ishlarimizni har birini o'z vaqtida tartibi bilan qilmoqqa aytiladi. Agar yer yuzida intizom bo'lmasa edi, insonlar bir daqiqa yasholmasqutulib, jonimizning qadrini bilgan bo'lamiz. Pok bo'lmoq salomatimiz, saodatimiz uchun eng kerakli narsadir. Sa'y va g'ayrat deb ustiga yuklangan ibodat va xizmatlarni harakat bilan ado qilmoqqa aytiladi. Yalqov kishilar har nasrsadan mahrum, doim boshqalarning yordamiga muhtoj bo'lib xorlikda qolurlar.

Riyozat – deb savob ishlarni qilib, gunoh ishlardan saqlanmoqlikka aytiladi. Riyozat odobning koni, ruhning darmonidir.

Shijoat – deb botir va yurakli bo'lmoqqa aytilur. Shijoatli kishi hech narsadan qo'rqmaydigan botir va yurakli bo'lur. Qanoat – hasad, tama, hirs, xorlik kabi illatlarning davosi, nafsimizning g'inovidur. Qanoat bir xazinadurki, bu xazinaga ega bo'lgan kishilar umrlarini shavq va rohatda kechirurlar.

Sabr – deb boshimizga kelgan balo va qazolarga chidamli bo'lmoq nazarda tutiladi. Sabr shunday bir kuchli bir narsadurki, shahvatni iffatga, g'azabni shijoatga, shiddatni hilmga, kattalikni tavozuga, yomonlikni yaxshilikka aylantirmoqqa quvvati yetar.

Hilm – deb bo'lar bo'lmasa ishga achchiqlanmaydigan, arslon yurakli, yumshoq tabiatli bo'lmoqqa aytiladi. Nafsning rohati, qalbning matonati, fikrning salomati, vijdonning halovati halim tabiat bo'lmoq ila hosil bo'ladi.

Intizom – deb qiladigan ibodatlarimizni, ishlarimizni har birini o'z vaqtida tartibi bilan qilmoqqa aytiladi. Agar yer yuzida intizom bo'lmasa edi, insonlar bir daqiqa yasholmas edilar.

Miqyosi nafs – deb qiladigan amallarimizni, ishlarimizni shariat, insoniyat qonuniga muvofiq bo'lish va yoki bo'lmasligini vijdonimiz ila o'lchab ko'rmoqlikka aytiladi. Vijdon – deb ruhimizga, fikrimizga ta'sir qiladigan hissiyot, ya'ni sezgi-tuyg'ulardan iborat bo'lgan ma'naviy quvvatga aytiladi. Vatanni sevmok. Vatan. Har bir kishining tug'ulib o'sgan shahar va mamlakati shu kishining vatani deyiladi. Har kim tug'ulib, o'sgan yerini jonidan ortiq sevar.

Haqqoniyat – deb ishda to'g'rilik, so'zda rostlikga aytilur. Inson bo'stoni salomatga, gulzori saodatga haqqoniyat yo'li ila chiqar. Insoniyatning ildizi o'lan rahmdillik, haqshunoslik, odillik kabi eng yaxshi sifatlarining onasi haqqoniyatdur. Nazari ibrat – deb har bir narsaga sinchiklab boqib, shundan o'ziga bir hissa ibrat olmoqqa aytiladi. Xulqlarning eng afzali, insonlar uchun eng keraklisi nazari ibratdur.

Iffat – deb nafsimizni gunoh va buzuq ishlardan saqlashimizga aytiladi. Bizlarni gunoh va ma'siyatdan saqlaguvchi, haromharishdan nafsimizni asraguvchi faqat iffatimizdir.

Hayo – deb ishda, so'zda odobni rioya qilmoqqa aytiladi. Hayo dilni ravshan qiladigan bir nurki, inson har vaqt shu ma'naviy nurning ziyosiga muhtojdir.

Idrok va Zako – deb ochiq fikrli, xushtabiat ziyrak bo'lmoqlikga aytiladi. Idrok va Zako yaxshi xulqlarning ravzayi rizvoni, ibrat ko'zlarining nuri rahmoniysidir.

Hifzi lison – deb har bir millat o‘z ona tili va adabiyotini saqlamog‘iga aytiladi. Har bir millatning dunyoda borligini ko‘rsatadigan oyinayi hayoti til va adabiyotidir. Chunki so‘z insonning daraja va kamolini, ilm va fazlini ko‘rsatadigan tarozidur. Tillarning eng yaxshisi so‘zga usta til, so‘zlarning eng yaxshisi bilib, oxirini o‘ylab so‘ylangan so‘zdir. Iqtisod – deb pul va mol kabi ne‘matlarning qadrini bilmoqqa aytiladi. Mol qadrini biluvchi kishilar o‘rinsiz yerga bir tiyin sarf qilmas, o‘rni kelganda so‘mni ayamas. Viqor – deb kibr va g‘ururdan, manmanlikdan o‘z nafsini saqlamoqlikka aytiladi. Viqor shariat va hikmat yuzasidan inson uchun eng kerakli

yaxshi xulqlardan biridir. Xavf va Rajo – deb qo‘rqmoq va umidvor bo‘lmoqqa aytiladi. Banda har ishda janobi Haqdan qo‘rqmoq ila barobar umidini ham uzmasligi lozimdur. Bu shunday xislatki, uni o‘ziga hamroh qilgan kishi eng fozil, hech narsadan qo‘rqmaydigan sher tabiatli, arslon yurakli bo‘ladi. Itoat – Alloh taoloning amriga bo‘ysinuvdur, ibodat va itoat qilish farzdir. Otaona, ustod, muallim kabi o‘zidan ulug‘ kishilarga itoat qilish eng yaxshi sifatlardandir. Haqshunoslik – deb bir kishining qilgan yaxshiligini unutmazlikka aytiladi. Butun olamdagi insonlar haqshunoslik va do‘stlik orqasidan yasharlar. Xayrixohlik – bu bir-birimizga foyda kektirmog‘imizdur. Boy faqirga, faqir boyga, muallim shogirdga, shogird muallimga, ota-ona farzandga, farzand ota-onaga muhtojdir. Munislik – bu har kim o‘z tengi, maslakdoshini topib, ulfat bo‘lmoqligidir. Dunyoning lazzati sodiq do‘stlar ila suhbat qilishdan iboratdur. Sadoqat – deb kishi o‘z vazifasini to‘g‘rilik ila ishlamoqlikiga aytiladi. Sodiq kishi din va millatiga, vatan va davlatga to‘g‘rilik ila xizmat qilib, obro‘ va mukofotlar oladi. Adolat – deb boshqalarning mol va nomusiga rioya qilmoqlikka aytiladi. Adolat yaxshi xulqlarning foili, zulmning muqobilidur. Jabr-u zulm ila boshqalarning dilini ozor qilgan kishilarning yoqalari jazo qo‘lidan qutulolmas. Muhabbat – bir narsani sevmqlikdir. Dunyodagi insonlar mehr va muhabbat soyasida yasharlar. Muhabbatsiz kishi hech bir ishda g‘ayrat va jasorat qilolmas, dunyo ne‘matidan lazzat ololmas. Avf – kattalik va ulug‘likning lazzati birovdan o‘ch olmoqda emas, balki avf qilmoqdadir. Ilm – bilmagan narsalarini bilganlardan o‘rganmoqdir. Otalarimiz, onalarimiz, ulug‘larimiz va muallim afandilarimiz ushbu bilgan narsalarimizni o‘rgatmagan bo‘lsalar edi, hozirda biz ham hech narsani bilmas edik. Ilm-odamning zehni ochar, aqlini orttirar, bilmagan narsalarini bildirar, dunyoda baxtli va izzatli qilar. Oxiratda saodatli va sharofatli qilar.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, Ota-ona, ustod, muallim kabi o‘zidan ulug‘ kishilarga bo‘ysinub itoat qilmoq eng yaxshi sifatlardandir. Bu sifatga ega farzand ota-onaga muhtojdir. Munislik – bu har kim o‘z tengi, maslakdoshini topib, ulfat bo‘lmoqligidir. Dunyoning lazzati sodiq do‘stlar ila suhbat qilishdan iboratdur. Sadoqat – deb kishi o‘z vazifasini to‘g‘rilik ila ishlamoqlikiga aytiladi. Sodiq kishi din va millatiga, vatan va davlatga to‘g‘rilik ila xizmat qilib, obro‘ va mukofotlar oladi. Adolat – deb boshqalarning mol va nomusiga rioya qilmoqlikka aytiladi. Adolat yaxshi xulqlarning foili, zulmning muqobilidur. Jabr-u zulm ila

boshqalarning dilini ozor qilgan kishilarning yoqalari jazo qo‘lidan qutulolmas. Muhabbat – bir narsani sevmqlikdir. Dunyodagi insonlar mehr va muhabbat

soyasida yasharlar. Muhabbatsiz kishi hech bir ishda g'ayrat va jasorat qilolmas, dunyo ne'matidan lazzat ololmas. Avf – kattalik va ulug'likning lazzati birovdan o'ch olmoqda emas, balki avf qilmoqdadir. Ilm – bilmagan narsalarini bilganlardan o'rganmoqdir. O'talarimiz, onalarimiz, ulug'larimiz va muallim afandilarimiz ushbu bilgan narsalarimizni o'rgatmagan bo'lsalar edi, hozirda biz ham hech narsani bilmas edik. Ilm-odamning zehni ochar, aqlini orttirar, bilmagan narsalarini bildirar, dunyoda baxtli va izzatli qilar. Oxiratda saodatli va sharofatli qilar. Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, Ota-ona, ustod, muallim kabi o'zidan ulug' kishilarga bo'ysinub itoat qilmoq eng yaxshi sifatlardandir. Bu sifatga ega bo'lmoq uchun har vaqt ularning foydali kengash va nasihatlarini tinglab, buyruqlarini mahkam tutmoq lozim. Chunki ular dunyoga bizdan ilgari kelganlar, bizdan ko'proq tajriba hosil qilganlar. Vatan va millatning holiga oshno bo'lganlar. Darhaqiqat, hayot ma'naviy bir sohadir, uni ko'rib va kuzatib bo'lmaydi, ammo Alloh insonga eng buyuk va eng qimmat qurolni bergan, ya'ni Aqlni. Millatimiz taraqqiyotining asl dushmani haqida, millat va vatanlari uchun qayg'urganlar doim bir so'z bilan parishonlik deya ta'kidlaydi. Bu esa ilmsizlik va tanballik oqibatidir. Bu illatlardan qutulmoq uchun millatni diniy ilm va dunyoviy ilm-fanlarni o'rganish uchun targ'ib qilish lozim. Diniy ilm va fanlarning o'rne maktab va masdrasadir. Millatlar taraqqiyoti shular ila bo'lur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Jadid adabiyoti namoyandalari "Odob-axloq kitobi" Yangi asr avlodi Toshkent 2018
2. Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" Toshkent 2004
3. Abdurauf Fitrat "Najot yo'li" asaridan parcha Yangi asr avlodi Toshkent 2018
4. Doniyorbek, N. (2023). BOLALAR UCHUN ZAMONAVIY SUV MUOLAJALARI MAJMUASINI YARATISH. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN, 523-527.
5. Qo'ziyevich, E. I., & Elmuradovna, J. E. (2023). Qadimgi qarshi shahri arxiologik yodgorliklari arxitekturasini ilmiy tahlili. Arxitektura, muhandislik va zamonaviy texnologiyalar jurnali, 2(2), 58-61.
6. Qo'ziyevich, E. I., & Elmuradovna, J. E. (2023). The scheme of territorial placement of agglomeration commercial and household complexes in Uzbekistan. Arxitektura, muhandislik va zamonaviy texnologiyalar jurnali, 2(2), 62-67.
7. Maxmatqulov, I. T. (2022). Scientific analysis of the Erkurgan historical and archeological complex in Karshi district of Kashkadarya region. Journal of Architectural Design, 4, 27-31.
8. Elmuradovna, J. E., & Qo'ziyevich, E. I. (2023). BUXORO ARKINING ARXITEKTURAVIY SHAKLLANISHI. ARXITEKTURA, MUHANDISLIK VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR JURNALI, 2(2), 75-78.